

**«IPTV Interaktiv raqamli televideniye»**  
**Asosiy Xizmati**  
**Xizmatni taqdim etish qoidalari va shartlari**

**1. XIZMATLARNI TAQDIM ETISH VA TARIFIKATSIYALASH QOIDALARI**

- 1.1. Xizmatlar Tariflarning tasdiqlangan va amaldagi Narxnomasi (Tarif rejalari)ga muvofiq taqdim etiladi.
- 1.2. Barcha narxlar milliy valyutada ko'rsatilgan va QQS'ni o'z ichiga oladi.
- 1.3. Xizmat Asosiy xizmatlardan biri bo'lib, boshqa Asosiy xizmatlardan alohida taqdim etilishi mumkin.
- 1.4. Ushbu xizmatdan foydalanishda Operator tarmog'i ichida yuzaga keladigan trafik tarifikatsiyalanmaydi.
- 1.5. Xizmat faqat texnik imkoniyat va Operator uskunasiidan Abonentning oxirgi terminaligacha ma'lumotlar uzatish kanallarining talab qilinadigan sifati mavjud bo'lganda Operator tarmog'i ichida taqdim etiladi. Abonentga ma'lumotlar uzatish kanallarining yetarlicha bo'lmagan sifati va parametrlarida xizmat taqdim etilmaydi. Muvofiq ravishda, ushbu xizmat bo'yicha shartnoma tuzilgunga qadar Abonent talabnomada ko'rsatilgan manzil va jihozlangan ulanish nuqtasigacha kanallar sifatining dastlabki tekshirilishi uchun Operator nomiga talabnoma berishi kerak. Operator foydalanish mumkin bo'lgan usullar bilan, shu jumladan, mutaxassisni yuborgan holda kanalning tekshiruvini o'tkazadi. Kanal talab qilinadigan sifatga mos kelganda Abonent sotuvlar ofisiga shartnoma tuzish uchun chaqiriladi.
- 1.6. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun Abonent Operatorning taqdim etiladigan kanalida IPTV texnologiyasini qo'llab-quvvatlovchi maxsus Set-Top-Box uskunasi ega bo'lishi kerak. Kerakli uskunani Operator shartnomani imzolash paytida tasdiqlangan va amaldagi Narxnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq taqdim etadi.
- 1.7. Abonent to'lovi ushbu xizmatga mos keladigan Abonent tomonidan tanlangan tarif rejasi narxidan iborat.
- 1.8. Birinchi ulanishda Abonentning Shaxsiy hisob-raqamidan Ro'yxatga olish to'lovi (aktsiyalar davri va boshqalar bundan istisno) va IPTV Asosiy xizmatining tanlangan Tarif rejasi va qo'shimcha xizmatlar uchun tariflarga muvofiq miqdordagi Abonent to'lovi hisobdan chiqariladi.
- 1.9. Abonent kalendar oyi davomida (1-sanadan boshlab emas) ulanganda, abonent to'lovining miqdori, joriy kalendar oyining oxirgi sanasigacha ulangan kundan boshlab proporsional ravishda qayta hisoblab chiqiladi. Oldindan to'langan to'lov va hisobdan chiqarilgan proporsional abonent to'lovi o'rtasidagi farq Abonentning

kundalik saldosi aks ettiriladi va undan to'lov yoki keyingi oyning abonent to'lovi uchun foydalanish mumkin.

1.10. Abonentning moslashuvchan va ushbu xizmat uchun sozlangan shaxsiy uskunasidan foydalangan holda Xizmatga ulanganda jismoniy shaxslarning Shaxsiy hisob raqamidan ro'yxatga olish to'lovi hisobdan chiqarilmaydi.

1.11. Har bir kalendar oyining birinchi sanasida tizim Abonentning Shaxsiy hisob raqamidan kundalik tarif rejasining har oylik abonent to'lovidan 100 foiz miqdoridagi summani avtomatik ravishda va so'zsiz hisobdan chiqaradi, abonentning hisobida abonent to'lovining 100 foizidan ko'p yoki teng summa bo'lishi sharti bilan.

1.12. Abonentning Shaxsiy hisob raqamida etarlicha mablag'lar bo'lmagan holda, Xizmatdan foydalanish tegishli summa to'langunga qadar uzib qo'yiladi va abonent to'lovini hisobdan chiqarish abonentning Shaxsiy hisob raqamiga tegishli summa kelib tushgan kunda amalga oshiriladi. Bunda to'lov joriy kalendar oyi davomida bajarilishi kerak, to'lov oyning qaysi kunida bajarilganidan qat'i nazar, abonent to'lovi butun oy uchun 100 foiz miqdorida hisobdan chiqariladi.

1.13. Operatorning billing tizimi Set-Top-Box orqali yoki Sotuvlar Ofisida aktivlashtirilgan Asosiy xizmat bilan bog'liq bo'lgan Qo'shimcha xizmatlarni ham avtomatik ravishda va so'zsiz Abonentning Shaxsiy hisob raqamidan hisobdan chiqaradi.

1.14. Operatorning billing tizimi barcha yozuvlarni va Shaxsiy hisob raqamdagi barcha hisobdan chiqarishlar tarixini hamda Abonentning Shaxsiy hisob raqamiga oxirgi 3 oy ichidagi hisoblangan pul mablag'larini hisobga oladi.

## **2. TARIF REJASINI ALMASHTIRISH QOIDALARI**

2.1. Abonentlar tarif rejasini ikki usul bilan almashtirish imkoniyatiga egadirlar:

2.1.1. 1-usul. Abonentlarning SO'ga dastlabki yozma talabnomasi bo'yicha ish vaqtida, keyingi kalendar oyining boshigacha tarif rejasini almashtirish. Bunday holda tarif rejasi keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan tanlangan tarif rejasiga almashtiriladi.

2.1.2. 2-usul. Tarif rejasini almashtirish abonentning Shaxsiy kabinet orqali rasmiylashtirilgan dastlabki talabnomasi bo'yicha bajarilishi mumkin. Bunday holda tarif rejasi keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan tanlangan tarif rejasiga almashtiriladi. Tarif rejasining almashtirilishi bekor qilinishini ham keyingi kalendar oyining birinchi sanasigacha bajarish mumkin.

2.1.3. Balansda mablag'lar yetishmagan holda, tarif rejasi almashtirilganidan keyin, Abonent yangi tarif rejasining abonent to'lovi uchun kerakli summani o'zining Shaxsiy hisob raqamiga to'lagunga qadar Xizmatlardan foydalanish blokirovka qilinadi.

2.1.4. Xizmatlarni yangi tarif rejasi bo'yicha aktivatsiya qilish Abonentning Shaxsiy hisob raqamida tanlangan tarif rejasining abonent to'lovini qoplash uchun kerakli summa mavjud bo'lganda bajariladi.

2.1.5. Tarif rejasini almashtirish operatsiyasi bepul amalga oshiriladi.

### **3. OPERATOR TOMONIDAN ABONENTNI XIZMATDAN BLOKIROVKA QILISH VA UZIB QO'YISH QOIDALARI**

3.1. Jismoniy shaxslar uchun Operator Xizmatlaridan foydalanishni blokirovka qilishning quyidagi qoidalari amal qiladi:

3.2. Xizmatlardan foydalanish kalendar oyining oxirigacha ijobiy balansda taqdim etilishi mumkin.

3.3. Agar to'liq kalendar oyi davomida Abonentning Shaxsiy hisob raqamidagi saldo abonent to'lovini to'liq hisobdan chiqarish uchun yetarli bo'lmasdan qolaversa, keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan Operatorning billing tizimida Abonent Shaxsiy hisob raqamining maqomi avtomatik ravishda «**Blokirovka qilingan**»ga aylanadi.

3.4. Shaxsiy hisob raqamning «Blokirovka qilingan» maqomi abonent bilan Shartnoma holatini aktiv bo'lmagan holatga o'tkazadi va Operatorning billing tizimi u bilan hech qanday amallarni (shu jumladan, hisobdan chiqarishlar)ni bajarmaydi, bunda bog'langan Qo'shimcha Xizmatlardan foydalanish taqiqlanadi.

3.5. Agar Abonent «**Blokirovka qilingan**» maqomida bir to'liq kalendar oyidan ko'p vaqt bo'lsa, tizim abonent Shaxsiy hisob raqamining maqomini «Tugatish» maqomiga o'zgartiradi va shu vaqtdan boshlab Operator abonent tomonidan Operator uskunasi band qilingan portni bo'shatish huquqiga ega bo'ladi.

3.6. «**Tugatish**» maqomida Operator Asosiy xizmat va bog'langan Qo'shimcha xizmatlar bo'yicha Abonent bilan tuzilgan shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qiladi.

3.7. Shartnoma bekor qilinganda abonentga muloqot uchun nomerlar bo'yicha bekor qilinish fakti to'g'risida va shartnomaning amal qilish vaqti davomida Abonentga taqdim etilgan mijoz uskunasi qaytarish zarurligi to'g'risida xabar qilinadi. Sotib olingan uskuna qaytarilmaydi.

3.8. Abonent Shartnomaning amal qilish vaqti davomida taqdim etilgan mijoz uskunasi 30 kalendar kuni ichida qaytarib berishga majbur. Aks holda uskunani qaytarish to'g'risidagi masala sudga oshiriladi.

3.9. Shaxsiy hisob raqamlari «Tugatilgan» maqomida bo'lgan sobiq Abonentlar eski shartnomalarni tiklay olmaydilar va Xizmatlarga ulanish xohishini bildirganlarida yangi abonentlar uchun mo'ljallangan barcha tegishli qoidalarni qo'llagan holda yangi abonentlar sifatida ko'rib chiqiladi.

3.10. Agar «**Blokirovka qilingan**» maqomiga ega Abonent o'z Xizmatlarining yangidan aktivlashtirilishini xohlasa, u to'lanmagan va foydalanilmagan davr uchun «Port rezervi» Qo'shimcha bog'langan Xizmati uchun tarifga teng

miqdordagi jarimani to‘lashi va joriy oy uchun 100 foiz Abonent To‘loviga teng bo‘lgan summani kiritishi kerak.

#### **4. ABONENT TASHABBUSI BILAN XIZMATDAN UZIB QO‘YISH**

4.1. Abonent o‘z tashabbusi bilan Xizmatlardan uzib qo‘yish istagini bildirganda:

4.1.1. Abonent belgilangan formatda Sotuvlar Ofisiga yozma ariza berishi kerak, shuningdek Operatorga tegishli bo‘lgan barcha uskunani to‘liq but va ishga yaroqli holatda qaytarishi hamda Xizmatlar uchun qarzlari bo‘lganda ularni to‘lashi kerak.

4.1.2. Abonent tashabbusi bilan Xizmatdan uzib qo‘yish ikki variantda bo‘lishi mumkin:

- keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan;

- xizmatning uzib qo‘yilishi uchun ariza joriy oyning 25-sanasidan kechiktirmasdan berilishi sharti bilan joriy oy davomida. Xizmatni uzib qo‘yish muddati ariza berilgan paytdan boshlab (Abonent tomonidan ko‘rsatiladi) 5 ish kuni. Bunday holda abonentning maqomi Abonent tomonidan ko‘rsatilgan sanadan boshlab «Blokirovka qilingan» maqomiga o‘zgartiriladi.

4.1.3. Ayni vaqtda, Abonent keyingi kalendar oyining birinchi bo‘lmagan sanasidan uzib qo‘yilgan holda joriy abonent oyi uchun hisobdan chiqarilgan abonent to‘lovi va qo‘shimcha bog‘langan xizmatlar uchun to‘lov kuyadi, qaytarib berilmaydi va qayta hisoblanmaydi.

4.1.4. Shartnoma bekor qilingan vaqtda Abonentning Shaxsiy hisob raqamida ijobiy saldo mavjud bo‘lgan holda, Abonent pul mablag‘larining qoldiqlari to‘liq hajmda Abonentga Operator tomonidan ko‘rsatiladigan boshqa xizmatning (masalan, qayd qilingan telefoniya xizmatlarining hisobiga va b.) Shaxsiy hisob raqamiga o‘tkazilishi mumkin. Abonentning Shaxsiy hisob raqamidagi pul mablag‘lari naqd pul shaklida qaytarilmaydi. Pul mablag‘lari abonentning bankdagi hisob raqamiga yoki plastik kartochockasiga o‘tkazilishi mumkin.